



O‘ZBEK MAQOM SAN’ATIDA TANBURNING FUNKSIONAL VA SEMANTIK O‘RNI

Rifatilla Kasimov
Turon FA akademigi,
Yunus Rajabiy nomidagi
O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
professori

Kirish.

O‘zbek milliy musiqa ijrochilik sohasida sozandalik, insoniyat hayoti, ma’naviyati va ruhiyatiga mislsiz darajada quvvat hamda madad beruvchi omildir. Milliy cholg‘u sozlarimiz hisoblanmish tanbur, dutor, g‘ijjak, nay, ud, chang, qonun, sato kabilar xalq orasida ardoqlanib, turli ko‘rinish, uslub va yo‘nalishlarda rivojlanib kelmoqda.

Musiqa ijrochiligi san’atining beqiyos va o‘lmas an’analarini o‘zlarida mujassam qilib, ularni zamonaga mos tarzda rivojlantirish, zabardast va ulkan qalb egalari xos xislatdir. Cholg‘uchilik san’atining muhim jihatlaridan yana biri ko‘ngilda ezgu his-tuyg‘ularni kamol toptirib, insonni hayotni sevishga, ardoqlashga undashidir. Shu sababdan cholg‘uchi sozandalar azaldan ma’naviyat va ruhiyat kuychilari sifatida xalq o‘rtasida e‘zozlanib va qadrlanib kelingan. G‘azal mulking sultoni Mir Alisher Navoiy bobomiz ta’biri bilan aytganda, “Shodlik oshiruvchi xonanda, g‘ammi tarqatuvchi sozanda – bularning har ikkisiga hissiyotga berilgan kishilar va ahli dardlar jon fido qiladilar.” (“Mahbub ul-qulub”dan).

Hozirgi davrimizda sozandalik sohasini ilmiy hamda amaliy jihatdan o‘rganish, idrok va tadqiq etish kasbiy tomonlama yetuk mutaxassis insonlar zimmasida ekanligini alohida uqtirib o‘tish lozim.

Asrlar osha bobokalonlarimizdan bizning davrimizgacha yetib kelgan bir qator musiqiy cholg‘ular orasida tanbur o‘zining sehrli, maftunkor, dillarga orom beruvchi sadosi, xush kayfiyat baxsh etuvchi qudratga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Tarixiy manbalarga murojaat etib tanburning nafaqat o‘zbek, tojik, uyg‘ur xalqlarida shuningdek, qo‘shni mamlakatlar – Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Shimoliy Hindiston hamda ayrim arab mamlakatlarida ham azaldan mavjud bo‘lganidan voqif bo‘lamiz. Ana shu mamlakatlarda tanburning turli shakllarda eramizdan avvalgi I



asrlardanoq keng ishlatilib kelinganligi qadimiy yodgorliklar, turli arxeologik topilmalar, miniatyuralardagi tasvirlar hamda ko'pgina yozma manbalar tasdiqlamoqda.

Zamonasining ulug' mutafakkiri va olimi Abu Nasr Muhammad al-Forobiy o'zining "Kitabul – musiqiy al-kabir" ("Musiqaga doir katta kitob") asarida tanbur sozini o'sha davrlarda, ya'ni X asrda, Xurosonli va Bag'dodli kabi turlari mavjud bo'lganligi haqida ma'lumot bergan. Keyinchalik, XIV asrda Samarqandda, Amir Temur saroyida uzoq yillar davomida o'zining benazir san'ati bilan xizmat qilib dovruq qozongan sozanda Xo'ja Abdulqodir tanburning shirvoniy, turkiy turlari bilan bir qatorda "nay tanbur" deb nomlanuvchi kamoni turi ham mavjudligini eslatib o'tgan edi. Mazkur cholg'u hozirda sato deb ataladi.

Tanbur – uzun va yo'g'on dastasiga qalin parda bog'langan hamda yupqa yog'och qoplamali noksimon kosaxonasi ustidagi maxsus xarrakdan o'tgan uch-to'rt simi noxun bilan chertib chalinadigan cholg'u hisoblanadi. Tanbur cholg'usining qadimiy turlaridagi torlar XVI asrga qadar ipakdan bo'lganligini XVII asr musiqashunos olimi Darvesh Ali Changiy o'z risolasida bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, mohir ijrochilar tanbur tovushining tembri yanada jozibador bo'lishi uchun kumush va mis simlardan foydalanishgan.

Keyinchalik esa mazkur cholg'u bizning davrimizdagi kabi ko'rinishga aylangan. Bu esa tanbur cholg'usining davr o'tishi bilan yanada rivoj topganligi va takomillashganligidan dalolatdir.

Yirik musiqashunos olim Fayzullo Karomatlining ta'kidlashicha: Buxoroda yaqin kunlarga tanburning chor tor (to'rt simli cholg'u), aniqrog'i uch asosiy simidan birinchisi qo'sha, panjtor (besh simli cholg'u), ya'ni uch asosiy simidan birinchi va uchinchilari qo'sha torli cholg'u turlari ham mavjud bo'lgan.

Tanburning semantik o'rni O'zbek musiqiy merosida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu cholg'u asbobi nafaqat kuy yaratish vositasi, balki inson his-tuyg'ularini, ichki kechinmalarini va ijtimoiy-estetik g'oyalarni musiqiy ifoda qilishning qudratli vositasidir. Tanbur ohanglari orqali qayg'u, sog'inch, ruhiy ko'tarinkilik, hayrat yoki sukunat kabi holatlar estetik shaklda tinglovchiga yetkaziladi. Ayniqsa, maqom asarlarida tanburning uzun, chuqur va tilday "so'zlanuvchi" sadosi inson qalbida ma'no qatlamlarini uyg'otadi, uning ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu holat tanburning musiqiy semantikasini chuqur anglashga, ya'ni uning har bir ohangi ortidagi ma'naviy va madaniy mazmunni tushunishga xizmat qiladi.



Tanburning semantik salohiyati uning ijro uslubi, tembr xususiyatlari va musiqiy kontekst bilan chambarchas bog‘liq. Ijrochi tanbur orqali nafaqat notalarni, balki ruhiy holatni, falsafiy fikrni yoki madaniy qadriyatni kuylaydi. Shu bois tanburning tovushi faqat eshitish emas, balki qalb bilan “tinglash” fenomenini yuzaga keltiradi. Bu esa musiqaning psixologik va madaniy anglanishini kengaytiradi. Natijada, tanbur kuyining har bir sadosi individual va kollektiv xotira, milliy ong va estetik sezgi bilan uyg‘unlashib, tinglovchi ongida o‘ziga xos semantik maydon hosil qiladi. Bu holat tanburni nafaqat cholg‘u sifatida, balki ruhiy-axloqiy va ma’naviy ifoda vositasi sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Tanburning boy tasviriy imkoniyatlarini hozirgi avlod vakillariga meros qoldirib, uzluksiz davomiyligini ta’minlagan san’atimiz darg‘alari Ota G‘iyos Nazirov, Matyoqub Xarratov, Sul-tonxon Hakimov, Shobarot, Qori Siroj, Usta Toir, Usta Ro‘zimatxon Isaboev, Asadqori Lutfullaev, Ma’rufjon Toshpo‘latov, Rizqi Rajabiy, Otavali Nuriddinov, Fazliddin Shaxobov, Shonazar Sohibov, Boboqul Fayzullaev, Maqsudxo‘ja Yusupov kabi mashshoqlarning nomlari tarix zarvaraqlaridan joy olgan.

Respublikamizning turli vohalarida yashab ijod etgan bu aziz siymolar ijrochilik san’atida o‘ziga xos maktab yaratganlar.

Tanbur cholg‘usi nafaqat yakkanavozlikda, balki yirik musiqa janri hisoblanmish maqom ashula yo‘llarini ijro etishda hofiz uchun yetakchi jo‘rnavoz cholg‘u sifatida dovrug‘ taratgan.

O‘tmish tarixga nazar tashlasak, Ota Jalol Nosirov, Levi Boboxonov, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Sodirxon Hofiz, Shorahim Shoumarov, Shonazar Sohibov, Jo‘raxon Sul-tonov, Berkinboy Fayziev, Ma’rufxo‘ja Bahodirov, Rasulqori Mamadaliev, Fattohxon Mamadaliev, O‘zbekiston davlat konservatoriyasida faoliyat ko‘rsatgan Orifxon Hotamov kabi atoqli hofizlar uchun tanbur doimiy jo‘rnavoz cholg‘u bo‘lganligini ta’kidlash joiz.

Har qanday kasbu kor, ilm-ma’rifat, madaniyat va san’atning rivoj topishi, bus-butun shakllanishi avlodlar shajarasi zanjirining uzilmasligidadir.

Jumladan, musiqa ijrochiligi san’ati ham bevosita avlod-dan-avlodga o‘tib sayqal topib kelayotgan san’atdir.

XX asrda yashab ijod etgan mashhur ustoz tanburchi sozandalarning tabarruk nomlari tarix zarvaraqlarida muhrlanib qoldi. Rizqi Rajabiy, Ma’rufjon Toshpo‘latov, Jo‘rabek Saydaliev, Abdumutal Abdullaev, Maqsudxo‘ja Yusupov, Rasulqori Mamadaliev kabi sozandalar qoldirgan ijro asarlari musiqiy oltin



xazinamizga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shilganligi ma’naviy boyligimizdan dalolat beradi.

An’anaviy ijroilikda musiqiy asarning ta’sirchanligi, inson ruhiyatiga xush kayfiyat baxsh etishi, ma’naviy ozuqa berishi, kuyning milliy ijro bezaklari bilan to‘laqonli ifoda etilishidadir. Buning uchun esa, sozanda yuksak musiqiy did va mahoratga ega bo‘lishi lozim. Jumladan, tanbur cholg‘usi ijrochiligida keng qo‘llaniladigan turli nola, qochirim, zarblar kabi musiqiy bezaklar asar ijrosidagi yetuklikni ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Yaqin o‘tmishda yashab ijod etgan, tanbur cholg‘usi ijrochiligida yorqin yulduz hisoblanib, o‘zining qalb qo‘ri, sehrli barmoqlari bilan chertgan sozidan xush navo taratishi tufayli yuraklarni zabt etgan, tillo noxun sohibi – O‘zbekiston xalq artisti, professor Turg‘un Alimatov o‘zbek milliy cholg‘usi sohasida betakror uslub va maktab yaratgan san’atimiz darg‘alaridan desak o‘rinli bo‘ladi.

Ustoz ko‘p yillar davomida O‘zbekiston davlat konservatoriyasi an’anaviy ijrochilik kafedrasida yosh sozanda talabalarga tanbur, sato, dutor cholg‘ulari sinfi bo‘yicha saboq berdi. Hozirgi kunimizda ustozning qo‘lida tahsil olgan bir qator shogirdlari respublikamizdagi nufuzli badiiy jamoalarda, maqom ansambllarida, oliy va o‘rta maxsus musiqa (san’at) bilim yurtlarida ijodiy faoliyat ko‘rsatib kelmoqdalar.

O‘zbekiston xalq hofizlari Hasan Rajabiy, marhum Mahmudjon Tojiboev, professor Abdullo Umarov, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Toir Qo‘ziev, Alisher Alimatov, Abror Zufarov, Shuhrat Nabiev, Ibrohim Samadov, Adham Ismoilov, Muhammadjon Mamatqulov, Asror Aslonov, Shuhrat Xolxo‘jaev, O‘ktam Rasulov kabi iste’dod egalari shular jumlasidandir.

Ma’lumki, tanbur cholg‘usi sozandalar tomonidan azaliy yakkanavozlikda ijro etib kelingan. XX asrning 30-yillaridan u sato, dutor va g‘ijjak cholg‘ulari bilan jo‘rnavozlik ko‘rinishida an’anaviy tus ola boshladi.

Turli milliy cholg‘ulardan iborat sozandalar ansambllarining vujudga kelishida ana shunday ijodiy ishlar sabab bo‘lganligi ehtimoldan xoli emas. O‘tgan davrimizda bir xil cholg‘udan iborat bo‘lgan qator ansambllar oliy va o‘rta maxsus musiqa (san’at) bilim yurtlarida, badiiy jamoalarda, havaskorlik to‘garaklarida faoliyat ko‘rsata boshladi. Bularga dutorchilar, rubobchilar, g‘ijjakchilar, changchilar va doirachilar ansambllarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Biroq ikki va undan ortiq tanburchilar jo‘rnavozligi hali amaliyotda qo‘llanilganicha yo‘q edi.



Shu bois ustoz Turg'un Alimatov tashabbusi bilan konservatoriyaning an'anaviy ijrochilik kafedrasida talabalaridan iborat tanbur-dutorchilar ansambli tashkil etildi. Mazkur ansambl dasturidan xalq kuylari, bastakorlar asarlari, shashmaqom, cholg'u va ashula bo'limlari, Toshkent va Farg'ona vohalariga mansub ashula va cholg'u yo'llaridan namunalar o'rin olgan.

Musiqqa asarlarining ansambl bo'lib ijro etilishida (ayniqsa bir xildagi cholg'ulardan tarkib topgan ansambllarda) avvalo sozga katta ahamiyat berilishi lozim. Cholg'u asboblarini bir xilda sozlash, o'ng qo'l (yakka zarb, qo'sh zarb, bilak zarb, kalta rez, pirrang kabi) zarblari va chap qo'l nolalarini bir xilda ijrosiga erishish muhim ahamiyatga egadir.

Ustoz Turg'un Alimatov saboqlari ana shunday omillarning mujassam bo'lishida amaliy jihatdan namuna bo'la oldi.

2020-2021 o'quv yilidan boshlab milliy musiqqa san'ati sohasiga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilganligi bois alohida oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi. Mazkur oliy o'quv yurti "Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqqa san'ati instituti" deb ataldi.

Ustoz, benazir san'at sohibi Turg'un Alimatov ijrochilik uslubi va maktabini yosh avlodga o'rgatishda, u kishidan ta'lim olgan, ayni vaqtda ko'plab oliy ta'lim muassasalarida, musiqqa va san'at kollej hamda maktablarida, jumladan Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kaedarsida faoliyat olib borayotgan shogirdlari munosib davom ettirmoqdalar.

Adabiyotlar:

1. Mahbub ul-qulub
2. "Ijodiy cho'qqilar sari intilib...". Maqolalar to'plami. T., 2014y.
3. "Musiqqa san'ati va pedagogikasi masalalari". O'quv qo'llanma. T., 2010y.
4. Qosimov R. An'anaviy tanbur ijrochiligi. Darslik. T., 2002y.
5. "Rajabiynoma" Sulola qissasi. T., 2016y.